

SPORT MURABIYLARINI KOMPETENTLIGINI TA’MINLASHDA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARNING O’RNI

Orziyev Abdurazzak Abduvali o’g’li
ADPI Jismoniy madaniyat kafedrası o’qituvchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19457596>

Annotatsiya: Maqolada jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari kompetentligini ta’minlashda pedagogik-psixologik omillarning o’rni bayon qilingan hamda rivojlantirish masalalari o’ranilgan.

Kalit so’zlar: islohot, kompetensiya, kompetentlik, kompetentli yondoshuv, yosh davrlari.

Annotation: The article describes the role of pedagogical and psychological factors in ensuring the competence of specialists in physical education and sports, and examines issues related to their development.

Keywords: reform, competence, competency, competence-based approach, age periods.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonning intellektual va ma’naviy axloqiy tarbiyasi bilan uzviy bog’liq ravishda uzluksiz ta’lim tizimi orqali har tomonlama rivojlantirishni ko’zda tutadi. Shu bois, har bir oliy ta’lim muassasasi jahonning yetakchi ilmiy-ta’lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o’rnatish, o’quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg’or pedagogik texnologiyalar, o’quv dasturlari va o’quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, o’quv-pedagogik faoliyatga, master-klasslar o’tkazishga, malaka oshirish kurslariga xorijiy hamkor ta’lim muassasalaridan yuqori malakali o’qituvchilar va olimlarni faol jalb qilish, ularning bazasida tizimli asosda respublikamiz oliy ta’lim muassasalari magistrant, yosh o’qituvchi va ilmiy xodimlarining stajirovka o’tashlarini, professor-o’qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilish – Oliy ta’lim tizimini kelgusida yanada takomillashtirish va kompleks rivojlantirish bo’yicha eng muhim vazifalardan biri etib belgilangan. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, hozirda dunyoda 200 dan ortiq milliy davlat ta’lim tizimlari mavjud bo’lib, ular orasida rivojlangan mamlakatlar ta’lim tuzilmasini o’z ichiga qamrab olgan “Yevropa ta’lim modeli”, “Osiyo ta’lim modeli”, “Amerika ta’lim modeli” deb nom olgan modellarning tutgan o’rni alohida ahamiyatli sanaladi. Izlanishlarimiz shuni ko’rsatmoqdaki, oxirgi yigirma besh yil davomida “kompetensiyalar” so’zi pedagogik jarayonni boshqaruv samaradorligi bilan bog’liq bo’lgan barcha atamalarni o’zida jamlagan tushuncha sifatida talqin qilingan. Oxir-oqibat, bunday umumlashtirish qator chalkashlik va tushunmovchiliklarga olib kelgan. Bizningcha, bunday anglashilmovchilikning asosiy sababi “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalarining noto’g’ri qo’llanilishi bo’lishi mumkin. Shu jihatdan olib qaraganda, uzluksiz ta’lim tizimining oliy ta’lim tizimida, jumladan menejment (sohalar bo’yicha) ta’lim yo’nalishi bo’yicha tahsil olayotgan bo’lajak mutaxassislarning psixologik kompetentligini shakllantirishda maxsus fanlarni o’qitish jarayonida qo’l keladigan metod, shakl va vositalarni aniqlash har doimgidan ham dolzarbroq sanaladi. Sababi, shaxsga nisbatan kompetentli yondashuv pedagogik jarayonning maqsadini aniqlabgina qolmay, balki uning yo’nalishini ham belgilab bera olishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Oliy ta’lim muassasasining maxsus fan o’qituvchisi “Davlat ta’lim standarti”da belgilab qo’yilgan ta’lim maqsadidan kelib chiqib, o’quv jarayonini loyihalashtirish, o’qitish texnologiyasini aniqlashtirish bilan bog’liq masalalarni hal etish uchun kompetentli yondashuvni amalga oshirishi zarur bo’ladi. Zero, Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek: “Islohotlar albatta eskicha yashash, eskicha ishlashga o’rganib qolgan ayrim mansabdorlarga yoqmaydi.

Chunki o‘zgarish, yangilanish ularning tinchi va oromini, huzur-halovatini buzadi. Lekin hayot davom etar ekan, hayot talabi bo‘lgan islohotlar ham izchil davom etishi muqarrar. Bu haqiqatni va talabni barcha darajadagi rahbarlar chuqur anglab olishlari zarur”. Shu jihatdan olib qaraganda, Oliy ta’lim tizimi talaba-yoshlari psixologik kompetentligini shakllantirishda universitet, institut, akademiya o‘qitiladigan har bir fanning o‘ziga xos hissasi mavjuddir. Xususan, maxsus fanlarni o‘qish, o‘zlashtirish yuzasidan bo‘lajak mutaxassislarning egallashi kerak bo‘ladigan nazariy bilimlari borasidagi tasavvurlari, kasbiy ko‘nikmasi hamda malakasi, ularning kasbiy kompetentligi darajasini belgilab beradi. Soha mutaxassislari kasbiy kompetentlikning mazmunini belgilab beruvchi bir qator faoliyat sohalari kontekstidagi kompetensiyalarni aniqlashgan. Bo‘lajak menejer mutaxassislarning psixologik kompetentligini shakllantirish mezonlari va bosqichlari aniqlanib, ularni amalga oshirish texnologiyasining mazmunini ishlab chiqilishi turli xil usullar bilan bog‘liq bo‘ladi. Lekin mazkur ishda biz bo‘lajak mutaxassislarning psixologik kompetentligini shakllantirishda o‘quv maqsadlari va faoliyat usullarining ahamiyatini hisobga olib, maqsadlar taksonomiyasidan foydalanishni tavsiya qilamiz. Maqsadlar taksonomiyasi ingliz olimi B.Blum tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, ular o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishidagi oltita bosqichni ajratib ko‘rstagan. Bu bosqichlarga ketma-ket uzviylikda o‘tilib, har bir yangi o‘zlashtirilgan bilimlarni mukammal egallash, ularni amalda qo‘llash va bevosita o‘quv hamda amaliy faoliyatining mazmuniy jihatlarini baholash imkonini beradi. Oliy ta’lim muassasalarida maxsus fanlarni o‘qitishda talabalardagi psixologik kompetentlikni shakllantirishda qator faoliyat turlari amalga oshiriladi: faoliyat usullari va vositalarini o‘zlashtirish: rejalash-tirish, loyihalash, modellashtirish, prognozlash; talabalarni turli faoliyat sohasiga yo‘nalganligi kabilar. Bu kabi psixologik kompetentlikka oid faoliyat turlarini o‘zlashtirish yo‘lida talabalarga axborot texnologiyalari bilan ishlash, elektron muhitdagi mobil tizimlar va virtual borliq imkoniyatlaridan foydalanish taklif etiladi. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, ijtimoiy-informatsion kompetensiya inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, axborotlar bilan ishlash jarayoni rejalashtirish, loyihalash, modellashtirish, prognozlash kabi faoliyati turlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, psixologik kompetentlikni shakllantirish – ta’lim islohotlaridagi asosiy masalalardan biri sifatida nazariy jihatdan tahlil etilar ekan, talabalar yuqori kurslarga o‘tganlarida, ularda ko‘proq o‘z ustida ishlash va izlanish, tadqiqotchilik faoliyati bilan shug‘ullanishga qiziqishi kabi hollar ko‘plab kuzatiladi. Bu davrda ularning o‘zini o‘zi takomillashtirish va rivojlantirish kompetensiyalarini shakllantirishga alohida ahamiyat qaratish lozim. Bu maqsadda maxsus fanni o‘qitish jarayonidagi yetakchi ta’lim metodlari va shakllari sifatida shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalardan samarali foydalanish mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori 2017-yil 3-iyundagi PQ–3031-son qarori
2. A.A. Pulatov, M.A. Qdirova / Sport pedagogik mahoratini oshirish (Voleybol). //O‘quv qo‘llanma. – Toshkent.: 2012 -yil. 155-bet.
3. A. A. Pulatov. / Voleybol nazariyasi va uslubiyati. //Darslik – Toshkent. «O‘zkitobsavdonashriyoti», 2020 yil. - 448 b.
4. Q.T.Arabboyev / Sport nazaryasi ; darslik Chirchiq 2023 yil-59 bet